


NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


3

21 169



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

1 181



Oilaviy korxonona

128



Unitar korxonona

6 294



Xususiy korxonona

21



Aksiyadorlik jamiyati


425



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-fevral oylarida)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra 1 233 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 173 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 181 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 158 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 34 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36 taga yoki 48,6 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra 22 062 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 870 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 169 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 509 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 595 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 350 taga yoki 63,0 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra 296 tani tashkil etib, ulardan 288 tasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga yoki 1,4 martaga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	53	41	12
Qozog'iston Respublikasi	13	8	5
Xitoy Xalq Respublikasi	52	29	23
Qirg'iz Respublikasi	8	7	1
Tojikiston Respublikasi	8	6	2
Turkiya Respublikasi	39	15	24
Hindiston Respublikasi	11	4	7
Janubiy Koreya Respublikasi	30	22	8
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	288	181	107
Namangan shahri	97	59	38
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	28	20	8
Namangan	18	16	2
Norin	11	6	5
Pop	28	18	10
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	18	15	3
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	26	15	11
Chust	20	10	10
Yangiqo'rg'on	11	7	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 97 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 33,7 %), Kosonsoy va Pop 28 tadan (9,7 %), Chortoq 26 ta (9,0 %), Chust 20 ta (6,9 %), Uychi hamda Namangan 18 tadan (6,3 %) danni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (32,9 %), Chust (8,0 %), Namangan, Uychi (6,7 %dan), Pop (6,4 %), To'raqo'rg'on (6,3 %), Kosonsoy (6,2 %), Uchqo'rg'on, Chortoq (6,1 %dan), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (4,9 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (33,4 %), Chust (11,4 %), Chortoq (9,1 %), Uychi, Yangiqo'rg'on (6,8 %dan), Uchqo'rg'on (6,3 %), To'raqo'rg'on (6,2 %), Pop (4,8 %), Norin (4,7 %), Namangan (4,2 %), Kosonsoy (3,4 %), Mingbuloq (2,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,4 %), Uychi (7,3 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,7 %) Namangan, Kosonsoy (6,3 %dan), Chust (5,6 %), Uchqo'rg'on (5,4 %), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin, To'raqo'rg'on (5,1 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-fevral oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan shahri (35,4 %), To'raqo'rg'on (23,5 %), Yangiqo'rg'on (14,7 %), Chust (11,8 %), Norin (5,9 %), Mingbuloq, Pop va Chortoq (2,9 %dan) tumanlari hissasiga tegishli. Kosonsoy, Namangan, Uychi va Uchqo'rg'on tumanlarida esa oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.